




# Aholining inflyatsion kutilmalari

Iyul oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan o'zgarishsiz saqlanib qolib, **10,1** foizga teng bo'ldi.

Iyul, 2026 | Jami 3 314 ta respondent qatnashdi



| Inflyatsion kutilmalarning omillari<br>(respondentlar ulushi, foizda) | 2025 |     |     |     |     |     | 2026 |     |     |     |      |      |
|-----------------------------------------------------------------------|------|-----|-----|-----|-----|-----|------|-----|-----|-----|------|------|
|                                                                       | avg  | sen | okt | noy | dek | yan | fev  | mar | apr | may | iyun | iyul |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi                                 | 48   | 46  | 46  | 49  | 50  | 48  | 44   | 45  | 51  | 59  | 56   | 57   |
| Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi                         | 41   | 41  | 42  | 40  | 47  | 47  | 40   | 41  | 44  | 45  | 46   | 53   |
| Transport xarajatlarining oshishi                                     | 26   | 25  | 25  | 24  | 29  | 30  | 25   | 25  | 27  | 29  | 27   | 33   |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi                                     | 31   | 27  | 26  | 23  | 25  | 22  | 24   | 19  | 24  | 15  | 23   | 26   |
| Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi                          | 22   | 22  | 23  | 20  | 24  | 22  | 20   | 19  | 22  | 23  | 22   | 24   |
| Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi                               | 26   | 25  | 27  | 26  | 26  | 23  | 24   | 23  | 28  | 19  | 19   | 21   |
| Valyuta kursining o'zgarishi                                          | 24   | 22  | 22  | 20  | 23  | 24  | 28   | 27  | 27  | 19  | 19   | 19   |


Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **kommunal xizmatlar, yoqilg'i-energiya resurslari, transport xarajatlari qimmatlashishi, ish haqi va nafaqalar, monopoliya** hamda **narxlarning sun'iy oshirilishi**, shuningdek **asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashishini** ta'kidlagan aholi respondentlari ulushi ko'paygan.



# Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari

Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari ham o'tgan oyga nisbatan sezilarli o'zgarishlarsiz saqlanib qolib, **9,8** foizni tashkil etdi.

Iyul, 2026 | Jami 1 855 ta respondent qatnashdi



| Inflyatsion kutilmalarning omillari<br>(respondentlar ulushi, foizda) | 2025 |     |     |     |     |     |     | 2026 |     |     |      |      |
|-----------------------------------------------------------------------|------|-----|-----|-----|-----|-----|-----|------|-----|-----|------|------|
|                                                                       | avg  | sen | okt | noy | dek | yan | fev | mar  | apr | may | iyun | iyul |
| Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi                        | 40   | 41  | 45  | 42  | 45  | 44  | 42  | 43   | 48  | 49  | 51   | 54   |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi                                 | 45   | 44  | 47  | 46  | 46  | 43  | 44  | 40   | 50  | 59  | 58   | 53   |
| Transport xarajatlarining oshishi                                     | 31   | 30  | 33  | 30  | 37  | 35  | 34  | 33   | 39  | 33  | 37   | 39   |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi                                     | 33   | 29  | 25  | 23  | 26  | 24  | 23  | 24   | 26  | 18  | 24   | 26   |
| Xomashyo narxlarining qimmatlashishi                                  | 24   | 26  | 28  | 26  | 25  | 24  | 27  | 26   | 33  | 19  | 23   | 21   |
| Valyuta kursining o'zgarishi                                          | 25   | 22  | 21  | 19  | 23  | 26  | 31  | 24   | 28  | 16  | 18   | 21   |
| Soliq yukining yuqoriligi                                             | 24   | 24  | 23  | 21  | 24  | 20  | 23  | 23   | 27  | 19  | 19   | 18   |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **yoqilg'i-energiya resurslari, transport xarajatlari qimmatlashishi, ish haqi va nafaqalar oshirilishi** hamda **valyuta kursi o'zgarishini** qayd etgan tadbirkorlar ulushi ko'paygan bo'lsa, **kommunal xizmatlar va xomashyo narxlari qimmatlashishini** belgilagan respondentlar ulushi kamaygan.




# Inflyatsion kutilmalar - sohalar kesimida

Aholi orasida yuqori inflyatsion kutilmalar **pensionerlar** tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **qishloq xo'jaligi** vakillari tomonidan qayd etildi.


Iyul, 2026

Respondentlar: aholi – 3 314 ta, tadbirkorlar – 1 855 ta

## Aholi



## Tadbirkorlar



Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **hunarmandchilik** sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **umumiy ovqatlanish** sohasida kuzatildi.




# Inflyatsion kutilmalar - hududlar kesimida

Aholining eng yuqori inflyatsion kutilmalari **Farg'ona viloyatida** kuzatilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich **Navoiy viloyatida** qayd etildi.


Iyul, 2026

Respondentlar: aholi – 3 314 ta, tadbirkorlar – 1 855 ta

## Aholi



## Tadbirkorlar




Tadbirkorlarning eng yuqori inflyatsion kutilmalari **Qashqadaryo viloyatida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past kutilmalar **Namangan viloyatida** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.



# Inflyatsion kutilmalar (aholi)

Daromadi mavjud bo'lmagan va daromadi 7 mln so'mdan yuqori bo'lgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.

Iyul, 2026 | Jami 3 314 ta respondent qatnashdi



## Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar bo'yicha javoblar taqsimoti

|                  |    |    |    |
|------------------|----|----|----|
| Farg'ona vil.    | 37 | 46 | 18 |
| Toshkent sh.     | 37 | 51 | 11 |
| Surxondaryo vil. | 42 | 45 | 14 |
| Andijon vil.     | 43 | 40 | 17 |
| Sirdaryo vil.    | 48 | 42 | 10 |
| Toshkent vil.    | 48 | 39 | 13 |
| Xorazm vil.      | 50 | 40 | 10 |
| Qashqadaryo vil. | 53 | 36 | 11 |
| Samarqand vil.   | 54 | 35 | 11 |
| Jizzax vil.      | 54 | 32 | 14 |
| Qoraqalpog'iston | 56 | 33 | 11 |
| Navoiy vil.      | 58 | 36 | 6  |
| Buxoro vil.      | 59 | 26 | 15 |
| Namangan vil.    | 62 | 25 | 12 |



8% va undan kamroq      9% - 16%      17% va undan yuqori



# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Iyul oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan **0,1** foiz bandga oshib, **10,3** foizni tashkil etdi.

Iyul, 2026 | Jami 3 314 ta respondent qatnashdi



Sezilgan inflyatsiya darajasining eng yuqori darajasi **Andijon viloyatida** qayd etilgan bo'lsa, eng past daraja esa **Navoiy viloyatida** kuzatildi.




# Sezilgan inflyatsiya omillari (aholi)

Iyun-iyul oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori o'sish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar

Iyul, 2026

Jami 3 314 ta respondent qatnashdi







# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Daromadga ega bo'lmagan va daromadi 7 mln so'mdan yuqori bo'lgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.

Iyul, 2026 | Jami 3 314 ta respondent qatnashdi



Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **pensionerlar** tomonidan bildirilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **qishloq xo'jaligi** vakillari tomonidan qayd etildi.